

---

## IMTIYOZLAR KIMLARGA BERILADI?

Bugun Rishton tuman hokimiligi axborot xizmati hamda tuman oila va xotin-qizlar bo'limi hamkorligida "Rishton tumanida xotin-qizlarga OTMlarga kirish uchun berilgan imtiyozlar haqida" to'g'risida ochiq muloqot o'tkazildi. Muloqotda tuman oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M. Bekmirzaeva hamda mahalladagi xotin-qizlar faollari ishtirok etishdi. Muloqot davomida tavsiyanomalar Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan bir marta beriladi va u 3 yil muddatga amal qilishi bo'yicha ma'lumot berildi. - Juda ko'p xotin-qizlar "tavsiyanoma oldim, endi aniq o'qishga kiraman" deb o'ylayapti. Ammo bu xato. Tavsiyanomadan tashqari ular yuqori ball ham to'plashi kerak, ya'ni bilim ham muhim. Tavsiyanoma berilgan xotin-qizlarga respublika bo'ylab kunduzgi ta'limga davlat granti asosida jami 2000 ta QO'SHIMChA kvota ajratilgan. Sirtqi va kechki ta'limda imtiyoz berilmaydi.!! Beshta yo'nalishni tanlaganda, tavsiyanoma faqat 1-yo'nalishga o'tadi. 2 va undan keyingi yo'nalishlarda qo'shimcha kvota berilmaydi, umumiy tartibda tanlovda qatnashiladi. Tegishli tavsiyanomasi bor xotin-qizlar har yili oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kirish uchun xujjatlarni topshirish muddatlarida o'rnatilgan tartibda maxsus elektron tizim orqali ro'yxatdan o'tkaziladi. Mazkur tartib oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim muassasalariga, O'zbekistondagi xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari hamda ularning filiallariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2022-05-26 06:05:52